



## BUYRUQ

8 oktabr 2025 yil.

U-83-son

Toshkent shahri

**Universitet Xalqaro turizm menejmenti kafedrasi tomonidan taqdim qilingan “Ekoturizm klasterini tashkil etish va uning negizida transchegaraviy turistik marshrut yaratish” nomli TIL-09/01-sonli tashabbusli ilmiy loyihani tasdiqlash xususida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, Alfraganus University rektorining 2025 yil 29 sentyabrdagi U-79-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Tashabbusli ilmiy loyiha”larni amalga oshirish bo'yicha Nizom, Xalqaro turizm menejmenti kafedrasi tomonidan taqdim qilingan “Ekoturizm klasterini tashkil etish va uning negizida transchegaraviy turistik marshrut yaratish” nomli TIL-09/01-sonli tashabbusli ilmiy loyiha konsepsiyasiga asosan

### BUYURAMAN:

1. Universitetning Xalqaro turizm menejmenti kafedrasi tomonidan taqdim qilingan “Ekoturizm klasterini tashkil etish va uning negizida transchegaraviy turistik marshrut yaratish” nomli TIL-09/01-sonli tashabbusli ilmiy loyihani amalga oshirish taklifi ma'qullansin.
2. Mazkur tashabbusli ilmiy loyihaning amalga oshirish jarayonlarini monitoring qilish Alfraganus Xalqaro ilmiy-tadqiqot va nashr markazi boshlig'i M.I.Xo'jayev zimmasiga yuklansin.
3. “Ekoturizm klasterini tashkil etish va uning negizida transchegaraviy turistik marshrut yaratish” nomli TIL-09/01-sonli tashabbusli ilmiy loyihani moliyalashtirish universitet ichki mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.
4. Ushbu buyruq ijrosini nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Rektor v.v.b



A.Ismailov



O'zbekiston Respublikasi  
Ekologiya, atrof-muhitni  
muhofaza qilish va iqlim  
o'zgarishi vazirligi  
huzuridagi Turizm  
qo'mitasi



O'zbekiston  
Respublikasi Oliy ta'lim,  
fan va innovatsiyalar  
vazirligi

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” NOTT

“TASDIQLAYMAN”  
Alfraganus University  
rektori, PhD, dotsent  
A. ISMAILOV



“08” oktabr 2025 y.

TIL-09/01-sonli  
“EKOTURIZM KLASTERINI TASHKIL ETISH VA UNING NEGIZIDA  
TRANSCHEGARAVIY TURISTIK MARSHRUT YARATISH”  
mavzusidagi tashabbusli ilmiy loyihani amalga oshirish

# REJASI

TOSHKENT-2025

## MUNDARIJA

|                                                                                     |          |
|-------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| <b>KIRISH .....</b>                                                                 | <b>3</b> |
| 1. Tashabbusli ilmiy loyiha maqsadi, obyekti, predmeti va vazifalari .....          | 4        |
| 2. Tashabbusli ilmiy loyiha jamoasi tarkibi .....                                   | 5        |
| 3. Tashabbusli ilmiy loyihaning vazifalar taqsimoti .....                           | 6        |
| 4. Tashabbusli ilmiy loyiha kalendari .....                                         | 7        |
| 5. Tashabbusli ilmiy loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar ...         | 8        |
| 6. Tashabbusli ilmiy loyihani amalga oshirish doirasidagi hamkor tashkilotlar ..... | 9        |

## KIRISH

TIL-09/01-sonli “Ekoturizm klasterini tashkil etish va uning negizida transchegaraviy turistik marshrut yaratish” mavzusidagi tashabbusli ilmiy loyiha Alfraganus universiteti Xalqaro turizm menejmenti kafedrası bosh tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda ilmiy faoliyatni samarali muvofiqlashtirish imkonini beradi. Professor-o‘qituvchilarga tadqiqot vazifalarini optimal taqsimlash yakunda sinergetik effektни vujudga keltirib, ilmiy faoliyat natijadorligini ta’minlaydi.

Mazkur loyiha Surxondaryo viloyati ekoturistik salohiyatini tahlil qilish orqali o‘rta va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturini shakllantirishga asos bo‘luvchi ilmiy takliflarni ishlab chiqish imkonini beradi. Loyiha doirasida ekoturistik destinatsiyalarga ekspeditsiya uyushtirish, ilmiy natijalarni O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi hududiy tuzilmasida taqdimot qilish, innovatsion ishlanmalar uchun mualliflik guvohnomalarini olish, maqolalar publikatsiyasini tashkil qilish mo‘ljallangan.

Shuningdek, aniq tarmoq, hudud va xo‘jalik subyektlari miqyosida tadqiqot gipotezalarini aprobatsiyadan o‘tkazish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotda foydalanish uchun taqdim qilishga asos bo‘ladi. Fan-ta’lim-amaliyot integratsiyasiga erishish evaziga tadqiqot natijalari umumlashtirilib, jamoaviy monografiya shaklida chop etiladi. Bir so‘z bilan aytganda, TIL-09/01-sonli “Ekoturizm klasterini tashkil etish va uning negizida transchegaraviy turistik marshrut yaratish” mavzusidagi tashabbusli ilmiy loyiha Alfraganus universiteti Xalqaro turizm menejmenti kafedrası ilmiy faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

## 1. TASHABBUSLI ILMIY LOYIHA MAQSADI, OBYEKTI, PREDMETI VA VAZIFALARI

**Tashabbusli ilmiy loyiha maqsadi** ekoturizm klasterini tashkil etish va uning negizida transchegaraviy turistik marshrut yaratish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tashabbusli ilmiy loyiha obyekti** sifatida Surxondaryo viloyati va uning ekoturistik salohiyati tanlangan.

**Tashabbusli ilmiy loyiha predmeti** ekoturizm klasterini tashkil etish va transchegaraviy turistik marshrut yaratish jarayonida vujudga keluvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui sanaladi.

**Tashabbusli ilmiy loyiha vazifalari** quyidagilardan iborat:

- Surxondaryo viloyati ekoturistik salohiyatini empirik tahlil qilish va argumentatsiyalangan xulosalarni SWOT-tahlili matritsasida aks ettirish;
- “ekoturizm klasteri” va “transchegaraviy turistik marshrut” definititsiyalari-ning mazmunini ochib berish;
- ekoturizm klasteri va uning tarkibiy komponentlarini aniqlash;
- ekoturizm klasterining tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga turistlar tashrifini muvofiqlashtirish-ning innovatsion marketing rejasini taklif etish;
- destinatsion ekoturizm mahsulotlarini loyihalashtirishga barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq qilish;
- destinatsion ekoturizm mahsulotlarini diversifikatsiyalash strategiyasini tayyorlash;
- transchegaraviy turistik marshrut sxemasi va uning asosiy tashrif punktlari bo‘ylab harakatlanishning logistik yechimlarini optimallashtirish;
- ekoturistik maskanlarda infratuzilma obyektlari faoliyatini rejalashtirish;
- ekoturizm da brend menejmentini takomillashtirish usullarini tasniflash;
- destinatsiya ekoturizm salohiyatini targ‘ib qilishning targeting konsepsiyasini ishlab chiqish.

## 2. TASHABBUSLI ILMIY LOYIHA JAMOASI TARKIBI

| <b>T/r</b> | <b>Ekspertning familiyasi va ism-sharifi</b> | <b>Asosiy ish joyi</b>                                                                                   | <b>Tashabbusli ilmiy loyiha jamoasi tarkibidagi statusi</b> |
|------------|----------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| 1.         | Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li            | Alfraganus universiteti<br>Xalqaro turizm menejmenti<br>kafedrasi mudiri, DSc                            | loyiha rahbari                                              |
| 2.         | Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich           | Alfraganus universiteti<br>Turizm fakulteti dekani, PhD                                                  | loyiha bosh ilmiy xodimi                                    |
| 3.         | Maksumov Azizxon Nodirjon o'g'li             | O'zbekiston Respublikasi<br>Turizm qo'mitasi boshqarma<br>boshlig'i                                      | loyiha bosh ilmiy xodimi                                    |
| 4.         | Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich                 | Alfraganus universiteti<br>Xalqaro turizm menejmenti<br>kafedrasi professori, iqtisod<br>fanlari nomzodi | loyiha yetakchi<br>ilmiy xodimi                             |
| 5.         | Yusupov Saidvali Shukrullayevich             | Alfraganus universiteti<br>Xalqaro turizm menejmenti<br>kafedrasi professori, PhD                        | loyiha yetakchi<br>ilmiy xodimi                             |
| 6.         | Ruziyev Shoxruxbek Ravshan o'g'li            | Alfraganus universiteti<br>Xalqaro turizm menejmenti<br>kafedrasi dotsenti, PhD                          | loyiha yetakchi<br>ilmiy xodimi                             |
| 7.         | Sadullayeva Aziza Azimbayevna                | Alfraganus universiteti<br>Xalqaro turizm menejmenti<br>kafedrasi dotsenti, PhD                          | loyiha yetakchi<br>ilmiy xodimi                             |
| 8.         | Qutlimurotov Fayzullo Sa'dullayevich         | Alfraganus universiteti<br>Xalqaro turizm menejmenti<br>kafedrasi dotsenti                               | loyiha yetakchi<br>ilmiy xodimi                             |
| 9.         | Abduraxmanov Shoxrux Abdujabbarovich         | Alfraganus universiteti<br>Xalqaro turizm menejmenti<br>kafedrasi katta o'qituvchisi                     | loyiha yetakchi<br>ilmiy xodimi                             |
| 10.        | Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li         | Alfraganus universiteti<br>Xalqaro turizm menejmenti<br>kafedrasi o'qituvchisi                           | loyiha kichik<br>ilmiy xodimi                               |
| 11.        | Musayeva Sayyora Abdivaxitovna               | Alfraganus universiteti<br>Xalqaro turizm menejmenti<br>kafedrasi o'qituvchisi                           | loyiha kichik<br>ilmiy xodimi                               |

### 3. TASHABBUSLI ILMIY LOYIHANING VAZIFALAR TAQSIMOTI

| T/r | Ekspertning familiyasi va ism-sharifi                                      | Tashabbusli ilmiy loyihani amalga oshirishdagi asosiy vazifasi                                                                                                                                                                                                                |
|-----|----------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li – <i>loyiha rahbari</i>                  | - loyiha tadbirlar rejasini muvofiqlashtiradi;<br>- destinatsiya ekoturizm salohiyatini targ'ib qilishning targeting konsepsiyasini ishlab chiqadi.                                                                                                                           |
| 2.  | Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich – <i>loyiha bosh ilmiy xodimi</i>       | destinatsion ekoturizm mahsulotlarini loyihalashtirishga barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq qilish zaruratini asoslaydi                                                                                                                                                |
| 3.  | Maksumov Azizxon Nodirjon o'g'li – <i>loyiha bosh ilmiy xodimi</i>         | loyiha tadbirlar rejasini amalga oshirish jarayonida axborot-tahliliy ta'minotni tashkil etadi                                                                                                                                                                                |
| 4.  | Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich – <i>loyiha yetakchi ilmiy xodimi</i>         | transchegaraviy turistik marshrut sxemasi va uning asosiy tashrif punktlari bo'ylab harakatlanishning logistik yechimlarini optimallashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi                                                                                                 |
| 5.  | Yusupov Saidvali Shukrullayevich – <i>loyiha yetakchi ilmiy xodimi</i>     | ekoturizm brend menejmentini takomillashtirish usullarini tasniflaydi                                                                                                                                                                                                         |
| 6.  | Ruziyev Shoxruxbek Ravshan o'g'li – <i>loyiha yetakchi ilmiy xodimi</i>    | - Surxondaryo viloyati ekoturistik salohiyatini empirik tahlil qiladi va argumentatsiyalangan xulosalarni SWOT-tahlili matritsasida aks ettiradi;<br>- ekoturistik maskanlarda infratuzilma obyektlari faoliyatini rejalashtirishning illustrativ ishlanmalarini tayyorlaydi. |
| 7.  | Sadullayeva Aziza Azimbayevna – <i>loyiha yetakchi ilmiy xodimi</i>        | muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga turistlar tashrifini muvofiqlashtirishning innovatsion marketing rejasini ishlab chiqadi                                                                                                                                                |
| 8.  | Qutlimurotov Fayzullo Sa'dullayevich – <i>loyiha yetakchi ilmiy xodimi</i> | destinatsion ekoturizm mahsulotlarini diversifikatsiyalash strategiyasini tayyorlaydi                                                                                                                                                                                         |
| 9.  | Abduraxmanov Shoxrux Abdujabbarovich – <i>loyiha yetakchi ilmiy xodimi</i> | ekoturistik maskanlarda infratuzilma obyektlari faoliyatini rejalashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi                                                                                                                                                                    |
| 10. | Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li – <i>loyiha kichik ilmiy xodimi</i>   | “ekoturizm klasteri” va “transchegaraviy turistik marshrut” definitiyalarining mazmunini ochib beruvchi ta'riflarni ishlab chiqadi                                                                                                                                            |
| 11. | Musayeva Sayyora Abdivaxitovna – <i>loyiha kichik ilmiy xodimi</i>         | ekoturizm klasterining tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqadi                                                                                                                                                                                                                   |

#### 4. TASHABBUSLI ILMIY LOYIHA KALENDARI

| T/r | Rejalashtirilgan tadbirlar                                                                      | Amalga oshirish muddati                |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|
| 1.  | Loyiha jamoasini axborot-tahliliy materiallar bilan ta'minlash                                  | 2025-yil noyabr oyi                    |
| 2.  | Statistik ma'lumotlar va rivojlanish tendensiyalari asosida SWOT-tahlilini amalga oshirish      | 2025-yil dekabr va 2026-yil yanvar oyi |
| 3.  | Ekoturistik destinatsiyalar ekspeditsiyasiga tayyorgarlik ko'rish                               | 2026-yil fevral-mart oylari            |
| 4.  | Ekoturistik destinatsiyalarga ekspeditsiya uyushtirish                                          | 2026-yil aprel oyi                     |
| 5.  | Ilmiy natijalarni O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi hududiy tuzilmasida taqdimot qilish | 2026-yil aprel oyi                     |
| 6.  | Innovatsion ishlanmalar uchun mualliflik guvohnomalarini olish                                  | 2026-yil may oyi                       |
| 7.  | Monografiya chop etish                                                                          | 2026-yil may oyi                       |

## **5. TASHABBUSLI ILMIY LOYIHANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR**

**Tashabbusli ilmiy loyihani amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishiladi:**

- Surxondaryo viloyati ekoturistik salohiyati empirik tahlil qilinadi va argumentatsiyalangan xulosalar SWOT-tahlili matritsasida aks ettiriladi;
- “ekoturizm klasteri” va “transchegaraviy turistik marshrut” definititsiyalari-ning mazmuni ochib beriladi;
- ekoturizm klasteri va uning tarkibiy komponentlari aniqlanadi;
- ekoturizm klasterining tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqiladi;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga turistlar tashrifini muvofiqlashtirish-ning innovatsion marketing rejasi taklif etiladi;
- destinatsion ekoturizm mahsulotlarini loyihalashtirishga barqaror rivojlanish tamoyillari tatbiq qilinadi;
- destinatsion ekoturizm mahsulotlarini diversifikatsiyalash strategiyasi tayyorlanadi;
- transchegaraviy turistik marshrut sxemasi va uning asosiy tashrif punktlari bo‘ylab harakatlanishning logistik yechimlari optimallashtiriladi;
- ekoturistik maskanlarda infratuzilma obyektlari faoliyati rejalashtiriladi;
- ekoturizmدا brend menejmentini takomillashtirish usullari tasniflanadi;
- destinatsiya ekoturizm salohiyatini targ‘ib qilishning targeting konsepsiyasi ishlab chiqiladi;
- innovatsion ishlanmalar uchun mualliflik guvohnomalari olinadi;
- monografiya chop etiladi.

*TIL-09/01-sonli “Ekoturizm klasterini tashkil etish va uning negizida transchegaraviy turistik marshrut yaratish” mavzusidagi tashabbusli ilmiy loyihaning operatsion xarajatlar smetasi Alfraganus universiteti o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Tadqiqot natijalari universitet ilmiy-tadqiqot va o‘quv-uslubiy faoliyatiga tatbiq etiladi.*

## 6. TASHABBUSLI ILMIY LOYIHANI AMALGA OSHIRISH DOIRASIDAGI HAMKOR TASHKILOTLAR

Tashabbusli ilmiy loyihani amalga oshirishda quyidagi tashkilotlar hamkor sifatida jalb etiladi.

| T/r | Hamkor tashkilot nomi                                                                                                       | Logotipi                                                                              |
|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi |    |
| 2.  | O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti                                                   |  |
| 3.  | Surxondaryo viloyat hokimligi<br>Turizm boshqarmasi                                                                         |  |
| 4.  | "E'zoza Triumf Tour" turoperatorlik kompaniyasi                                                                             |  |